

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA O'YINLAR VA QO'SHIQLAR ORQALI INGLIZ TILINI O'RGATISH

*Samarqand davlat chettilari instituti ingliz tili
fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Norboyeva Laylo

laylonorboyeva90@gmail.com

+998777080523

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ingliz tilini oson o'rgatishda o'yinlar va qo'shiqlarning ta'siri va ahamiyati, ularning psixologik, lingvistik hamda tarbiyaviy jihatdan tahlil qilinadi. Men o'z pedagogik kuzatuvlarim, o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida o'yin va qo'shiqlarning til o'rganishdagi o'rnini tahlil qiladim. Mazkur maqolada o'yin va musiqiy faoliyat orqali bolaning tabiiy qobiliyatini o'stirish, ularni faol o'quv jarayoniga undashning samarali usullarini bayon etdim.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ingliz tili, o'yin, qo'shiq, metodika, bola psixologiyasi, interfaol usul, motivatsiya

Bugungi kunda globallashtirish davrida chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini bilish, o'rganish har bir yosh avlod uchun zaruratga aylanib bormoqda. Bu jarayonni erta yoshdan, ya'ni maktabgacha bosqichdan boshlash bolaning tilni tabiiy va oson o'zlashtirishini ta'minlaydi. Shu bois "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5117-son qarorida"¹ chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish, bolalarda erta yoshdan xorijiy tillarni o'rganish uchun sharoit yaratish zarurligi alohida qayd etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tilini o'rganish jarayoni kattalar ta'limidan keskin farq qiladi. Bu yoshdagi bolalar uchun o'yin, qo'shiq, she'r va tasviriy faoliyat tabiiy o'rganish vositasidir. "Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar majburiy o'rganishdan ko'ra o'yin orqali bilimni tezroq va chuqurroq o'zlashtiradi".² Shu sababli har bir tarbiyachi ingliz tili mashg'ulotlarini bolalarning yosh xususiyatlariga mos, qiziqarli va jonli tarzda tashkil etishi zarur.

1. O'yin faoliyatining o'quv jarayonidagi o'rnini

O'yin – bola hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. U bolaning tafakkuri, o'sishi rivojlanishini nutqi va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy vositadir. M. Yo'ldosheva (2019) fikricha, "o'yinlar o'quvchilarda tilga nisbatan ijobiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ–5117-son, 2021-yil 19-may.

² Rasulova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020. – 56-bet.

munosabat uygʻotadi va nutqiy faoliyatni tabiiy muhitda rivojlantiradi”.³ Ingliz tili darslarida “Simon says”, “What’s missing?”, “Find the color”, “Guess the animal” kabi oʻyinlar bolalarning soʻz boyligini kengaytiradi, eʼtiborini jamlaydi hamda muloqotga tayyorlaydi.

Hozirgi kunda maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarda oʻyinlarning Afzal jihati shundaki, ular darsni majburiyatdan zavq manbaiga aylantiradi. Bola oʻyin oʻynar ekan, u bilmagan holda yangi soʻz, ibora va grammatik shakllarni oʻzlashtiradi. Harakatli oʻyinlar (“Touch something red!”, “Jump to the letter A!”) esa nafaqat bilim beradi, balki sogʻlom faoliyatni ham ragʻbatlantiradi. “Shuningdek, pedagog har bir oʻyinda bolani ragʻbatlantirib, “Very good!”, “Excellent!”, “Good job!” kabi soʻzlarni ishlatishi lozim. Bunday ijobiy soʻzlar bolaning ishonchini oshiradi va uni oʻrganishga yanada ilhomlantiradi.”⁴

2. Qoʻshiqlarning psixologik va lingvistik ahamiyati

Qoʻshiqlar bolalarda nafaqat eshitish va talaffuz koʻnikmalarini, balki ritm, ohang va soʻz birikmalarini his qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi. “Head, Shoulders, Knees and Toes”, “If You’re Happy and You Know It”, “The Wheels on the Bus” kabi bolalar qoʻshiqlari yangi soʻzlarni yodlash, talaffuzni toʻgʻrilash va nutqni tabiiy tarzda shakllantirishda katta ahamiyatga ega. “T. Askarova (2021) taʼkidlaganidek, “qoʻshiq orqali oʻrganish bolaning hissiy dunyosiga taʼsir etadi, ularni til oʻrganishga ruhiy tayyorlaydi”.⁵ Shuning uchun har bir mashgʻulotda kamida bitta mavzuga mos qoʻshiq kiritish tavsiya etiladi. Masalan, ranglar mavzusida “Rainbow Song”, hayvonlar mavzusida “Old MacDonald Had a Farm” qoʻshigʻidan foydalanish mumkin. “Xorijiy tadqiqotlarda ham bu yondashuv oʻz isbotini topgan. J. Harmer (2018) oʻz asarida shunday yozadi: “Children learn language best when they sing, move, and interact with meaning” (Harmer, 2018, p. 115). Bu shuni anglatadiki, qoʻshiqlar orqali til oʻrganish bolaning miyasida axborotni tabiiy qayta ishlash mexanizmini faollashtiradi”.⁶

3. Oʻyin va qoʻshiqlarni uygʻunlashtirish

Eng yaxshi natija oʻyin va qoʻshiqlarni birgalikda qoʻllaganda kuzatiladi. Masalan, “Hello Song”, “Good Morning”, “Color Song”ni aytish jarayonida bolalarga mos rangdagi buyumlarni topish topshirigʻini berish mumkin yoki qoʻshiq orqali bolalar salomlashuvni oʻrganadi. Shu orqali ular tinglab tushunish, harakat qilish va soʻzlashni bir vaqtda bajaradi. Bu esa interfaol oʻqitishning asosiy tamoyilidir.

Mening amaliy kuzatuvlari shuni koʻrsatadiki, oʻyin va musiqiy mashgʻulotlarni uygʻunlashtirish bolalarda charchoqni kamaytiradi, ularning diqqatini uzoqroq vaqt davomida saqlashga yordam beradi. Shuningdek, bola oʻzi bilgan soʻzlarni real

³Yoʻldosheva M. Maktabgacha taʼlimda xorijiy til oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 78-bet.

⁴Askarova T. Bolalar psixologiyasi va xorijiy til oʻqitish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 42–44-betlar.

⁵Askarova T. Bolalar psixologiyasi va xorijiy til oʻqitish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. 44-bet.

⁶Harmer J. Teaching Young Learners. – London: Pearson Education, 2018. – p. 115-b.

hayotdagi predmetlar bilan bog'lay boshlaydi. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham bu yondashuvga e'tibor kuchaymoqda. "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da bolalarda ijodiy, muloqot va o'yin orqali o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan".⁷

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, o'yinlar va qo'shiqlar maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda nafaqat eng samarali metod, balki ularning tabiiy o'rganish usulidir. O'yin orqali bola o'rganayotgan tilni his qiladi, qo'shiq orqali esa uni eshitadi va takrorlaydi. Har bir tarbiyachi darsni quruq grammatika yoki tarjimaga emas, balki bolalar uchun jonli, harakatli qo'shiqlar, esda qolarli tajribaga aylantirishi kerak. Tilni o'rganish zavq bag'ishlasa, bola o'sha tildan qo'rqmaydi, balki uni sevib o'rganadi. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlar va qo'shiqlar asosida ingliz tili mashg'ulotlarini olib borish – bu bolalarda tilga bo'lgan muhabbatni, o'ziga ishonchni va ijodiy fikrlashni shakllantiruvchi eng tabiiy yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ–5117-son, 2021-yil 19-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi, 2018-yil.
3. Rasulova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti, 2020. – 56-bet.
4. Yo'ldosheva M. Maktabgacha ta'limda xorijiy til o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 78-bet.
5. Askarova T. Bolalar psixologiyasi va xorijiy til o'qitish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 42–44-betlar.
6. Harmer J. Teaching Young Learners. – London: Pearson Education, 2018. – p. 115.
7. Brewster J., Ellis G. The Primary English Teacher's Guide. – Harlow: Longman, 2017. – p. 93.

⁷O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi, 2018-yil.